



Maxsus pedagogik jarayon orqali bolalarning og'zaki nutqini faollashtirish usullari

Saipova Hilola Abduhamitovna –

Farg'ona davlat universiteti

“Inklyuziv” ta’lim kafedrası mudiri,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E-mail: saipovahilola3@gmail.com | ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-4813-9983>

Bozorboyeva Nodirabegim Akramjon qizi –

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maxsus pedagogik jarayon orqali nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini faollashtirish masalalari yoritilgan. Nutqni faollashtirishda qo'llaniladigan logopedik, psixologik va didaktik usullar, shuningdek, o'yin texnologiyalari, logoritmik mashg'ulotlar va individual yondashuvning ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada amaliy misollar orqali bolalarda nutq faolligini oshirishda samarali metodlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: maxsus pedagogika, nutq faolligi, logopedik mashg'ulot, logoritmika, kommunikativ rivojlanish, o'yin texnologiyasi, og'zaki nutq.

Устная речь детей посредством специального педагогического процесса методы активации

Аннотация. В данной статье освещены вопросы активизации устной речи у детей с нарушениями речи в специальном педагогическом процессе. Проанализированы логопедические, психологические и дидактические методы, используемые при речевой активации, а также значение игровых технологий, логоритмических упражнений и индивидуального подхода. В статье на практических примерах представлены эффективные методы повышения речевой активности у детей.

Ключевые слова: специальная педагогика, устная речь, логопедия, логоритмика, развитие коммуникации, коррекционные технологии.

Methods of activating children's oral speech through a special pedagogical process

Annotation. The article analyzes the theoretical and practical foundations of activating oral speech in children with speech impairments within the framework of special pedagogy. It emphasizes the importance of integrating logopedic, psychological, and musical-rhythmic approaches. Effective methods such as logorhythmic exercises, game technologies, breathing and articulation training, and creating communicative situations are presented. The role of cooperation between speech therapists, teachers, and parents in promoting children's speech activity is also discussed.

Keywords: special pedagogy, oral speech, logopedics, logorhythmics, communication development, correctional techniques.

KIRISH

Bolalarda nutqning to'liq va izchil rivojlanishi shaxsning har tomonlama shakllanishi, ijtimoiy moslashuvi hamda bilish jarayonlarining muvaffaqiyatli kechishi uchun muhim omil hisoblanadi. Og'zaki nutq orqali bola atrof-muhit hodisalarini idrok etadi, o'z fikrini ifodalashga o'rganadi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotga kirishadi hamda ijtimoiy tajribani egallaydi. Nutq faoliyati bolaning tafakkuri, xotirasi va emotsional holati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning umumiy rivojlanish darajasini belgilaydi.

Shu bilan birga, ayrim bolalarda nutq faoliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatiladi. Bu holat tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish, so'z boyligining kamligi, grammatik tuzilmalardan to'liq foydalana olmaslik hamda fikrni izchil va mantiqiy bayon etishda qiyinchiliklar bilan namoyon bo'ladi. Bunday nutqiy nuqsonlar bolaning muloqotga kirishish faolligini pasaytiradi va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bu kabi holatlar maxsus pedagogik yondashuvni, maqsadli va tizimli korreksion ishlarni talab etadi.

Maxsus pedagogik jarayon doirasida bolalarning og'zaki nutqini faollashtirishga qaratilgan turli samarali usullar qo'llaniladi. Jumladan, logopedik mashg'ulotlar, korreksion va didaktik o'yinlar, ritmik va artikulyatsion mashqlar, shuningdek, vizual va eshituv tayanchlaridan foydalanish nutq faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu usullar bolaning nutqiy faolligini oshirish, to'g'ri talaffuzni shakllantirish va muloqotga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonni ilmiy asoslash, bolalarda og'zaki nutqni bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda ularni mustaqil muloqotga tayyorlash maxsus pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Nutq – bu faqat so'zlash jarayoni emas, balki bolaning fikrlash, idrok, xotira va muloqot faoliyatining murakkab psixik tizimidir. L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, A.A.Leontyev kabi olimlar ta'kidlashicha, nutq faoliyati bolaning bilish jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning shakllanishida ijtimoiy tajriba hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Maxsus pedagogik yondashuvda nutqni faollashtirish bolani faol muloqot jarayoniga jalb etish orqali amalga oshiriladi. Logopedning asosiy maqsadi – bolaning nutqiy faoliyatini rag'batlantirish, emotsional qo'llab-quvvatlash, ijodiy fikrlashni uyg'otish va

soʻz zaxirasini kengaytirishdir. Shuningdek, ogʻzaki nutqni rivojlantirishda quyidagi psixologik omillar muhim:

- bolaning nutqqa boʻlgan motivatsiyasi;
- ijobiy hissiy muhit;
- muvaffaqiyatga erishish holatlarini yaratish;
- ragʻbatlantiruvchi baholash;
- oʻyinli va harakatli faoliyatni qoʻllash.

Boladagi nutqiy faoliyatni shakllantirishda uning lugʻat boyligi ham boy boʻlishi zarur. Chunki bolaning soʻzlarni ifodalashdagi kamchiliklari nutqiy faoliyat orqali aniqlanadi. Bolaning nutqini toʻliq amalga oshirishda unga kerakli muhit yaratish zarur.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maxsus pedagogik jarayonda ogʻzaki nutqni faollashtirishda artikulyatsion mashqlar nutq apparatini faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. Masalan: “Qoʻngʻiroqchalar” – tilni tebratish orqali [r] tovushini shakllantirish;

“Otning yurishi” – tilni lab va tanglay orasida tez-tez harakatlantirish;

“Qayiqcha” – lablarni choʻzish va boʻshashtirish orqali nutq organlarini mustahkamlash.

Bu mashqlarni musiqa yoki sheʼr ritmida bajarish bolaning emotsional ishtirokini oshiradi.

Bundan tashqari, logoritmika boʻlib, bu musiqa, harakat va soʻzning uygʻunlashuvidir. Bolalar ritm asosida qoʻshiq aytadilar, sheʼrlarni aytish jarayonida tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilishni oʻrganadilar. Masalan:

“Qaldirgʻoch uchdi”, “Baliqchalar suzadi” kabi harakatli qoʻshiqlar orqali nafas va artikulyatsiya muvofiqlashtiriladi.

Ritmik mashqlar bola diqqatini jamlash va soʻzlarni ketma-ket talaffuz etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Bolalar nutqini faollashtirishda oʻyin usullari ham juda samarali hisoblanadi. Masalan:

“Kim aytdi?” – tovushni farqlash va eshituv xotirasini mustahkamlash oʻyini;

“Rasmga qarab gap tuz” – grammatik tuzilmani shakllantirish;

“Nimani eshitding?” – fonematik eshituvni rivojlantirish.

Oʻyinli mashgʻulotlar orqali bola oʻzini erkin his qiladi, bu esa tabiiy nutq faoliyatini ragʻbatlantiradi.

Bolalar bilan muloqotli suhbatlar, qisqa dialoglar, savol-javob mashgʻulotlari ogʻzaki nutqni faollashtirishda muhim. Masalan: “Bugun nima qilding?”, “Qaysi oʻyin senga yoqadi?”, “Rasmda kimlar bor?” kabi savollar orqali bolaning fikrlash va javob berish malakasi rivojlanadi.

Vizual va eshituv tayanchlardan foydalanish, yaʼni rasm, predmet, piktogramma, audio yozuvlar yordamida nutqni faollashtirish bolada muloqotga kirishishni osonlashtiradi. Masalan, “Savatdagi mevalar” rasmini koʻrsatib, “Bu nima?”, “Rangi qanday?”, “Qaysi meva senga yoqadi?” kabi savollar berish muloqot faoliyatini jonlantiradi.

Bolalar nutqini faollashtirishda ota-ona pedagog bilan hamkorlikda ishlashi zarur. Ogʻzaki nutqni faollashtirish jarayonida oila muhitining taʼsiri katta oʻrin tutadi. Uy sharoitida bola bilan suhbatlashish, ertak aytish, sheʼr oʻqish, musiqali oʻyinlarni birgalikda oʻynash – bu jarayonlarning barchasi logopedik mashgʻulotlar natijasini mustahkamlaydi.

XULOSA

Bolaning nutqini faollashtirish uchun eng samarali usullardan biri – uni gapirish zaruratiga qoʻyishdir. Buning uchun atrofda sunʼiy ravishda kommunikativ vaziyatlar yaratish lozim. Masalan, bolaning sevimli oʻyinchoqlarini baland joyga qoʻyish orqali u oʻyinchoqni olish uchun soʻrashga majbur boʻladi. Yoki bolaga ataylab notoʻgʻri narsa

berish – bu uni tuzatish va to'g'risini so'rashga undaydi. Bunday vaziyatlar bolada so'z bilan muloqot qilish ehtiyojini shakllantiradi va nutq faolligini oshiradi. Bundan tashqari, kutish strategiyasi ham nutqni faollashtirishning oddiy, ammo juda samarali usuli. Bola nimadir xohlaganda, kattalar ko'pincha darhol uning xohishini bajarib qo'yadi. Ammo bir necha soniya sabr qilib kutish va bolaga ko'z qarab turish uni so'z bilan so'rashga undaydi. Bu strategiya bolaga men gapirmasam, meni tushunishmaydi degan tushunchani singdiradi. Kutish jarayonida bolaga bosim o'tkazmagan holda, iliq va qo'llab-quvvatlovchi muhit saqlanishi muhim. Bola qiziqadigan narsalar haqida gapirish osonroq. Shuning uchun nutqni faollashtirishda bolaning sevimli o'yinchoqlari, kitoblari, multfilmlari va qiziqishlariga mos materiallardan foydalanish zarur. Rangli rasmlar, kitoblari, qo'g'irchoq teatri, musiqa asboblari, hayvonlar haqidagi o'yinlar – bularning barchasi bolaning kommunikativ faolligini oshiradi. Qiziqish bo'lsa, gapirish istagi ham kuchayadi. Yangi so'zlar va iboralarni bir marta eshitish yetarli emas – ularni turli vaziyatlarda qayta-qayta ishlatish lozim. Tadqiqotlarga ko'ra, bola yangi so'zni o'zlashtirishi uchun uni kamida 10-20 marta turli kontekstlarda eshitishi kerak. Kundalik faoliyatlar – ovqatlanish, yuvunish, kiyinish, sayr – so'zlarni takrorlash uchun ajoyib imkoniyat yaratadi. Har kuni bir xil so'zlarni ishlatish bolaga ularni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

Demak, og'zaki nutqni faollashtirish nafaqat nutq kamchiligini bartaraf etishga, balki bolaning shaxsiy, hissiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu bois maxsus pedagogik tizimda bu yo'nalishni yanada takomillashtirish, logopedik texnologiyalarni boyitish va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Виготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Педагогика, 1982.
2. Лурия А.Р. Основы нейропсихологии. – М., 1973.
3. Глухов В.П. Логопедия: Теория и практика коррекции нарушений речи у детей. – Москва, 2007.
4. G'.Abduqodirov, M.O'rino'va. Maxsus pedagogika. – Toshkent: TDPU, 2016.
5. Raximova N. Logopedik mashg'ulotlarda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent, 2021.
6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Maxsus ta'lim dasturi (nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun). – Toshkent, 2020.
7. Tsoy E.V. Korrektsionnaya pedagogika i logopediya. – Moskva, 2015.
8. A.Abdullayeva. Nutq terapiyasi va rivojlantirish metodikasi. – Samarqand, 2022.